

## BUXORO PEDAGOGIKA MAKTABINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOT ISTIQBOLLARI

**Xakimov Shuxrat Shodiyevich**  
**Sharipova Shaxlo Samadovna**

*Osiyo Xalqaro universiteti 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** *O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida Buxoro pedagogika maktabining shakllanishi hozirgi zamonda taraqqiyot istiqbollari o'rganish.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lim, tarbiya, madrasa, jadid, axloq, iqtidor, pedagog.*

**Annotation:** *Studying the development prospects of the formation of the Bukhara pedagogical school in the process of providing education to students.*

**Key words:** *education, training, madrasa, tradition, morality, talent, pedagogue.*

**Аннотация:** *Изучение перспектив развития Бухарского педагогического училища в процессе обучения студентов.*

**Ключевые слова:** *образование, обучение, медресе, традиция, нравственность, талант, педагог.*

### **Kirish:**

O'rta asrlarda Buxoro madrasalari ilm maskani sifatida nafaqat Movarounnahrda, balki Markaziy Osiyo, musulmon sharqida ham mashhur edi. Sadridin Ayniyning qayd etishicha, Buxoro madrasalarining islom olamidagi nufuzi juda yuqori bo'lib, ularda ta'lim olgan ulamolarning diniy masaladagi so'zlari Misr va Hijozda o'qiganlarning so'zlaridan ko'ra mo'tabarroq hisoblangan.

Buxoro madrasalari azaldan islom dunyosining ilm-ma'rifat markazi sifatida katta nufuzga ega bo'lganligi sababli XIX—XX asr boshlarida ham o'zining ma'naviy-madaniy markaz sifatidagi ahamiyatini yo'qotmagan. XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida ham Buxoro madrasalarining islom dunyosidagi mavqei va nufuzi ma'lum darajada saqlanib, jamiyat taraqqiyoti darajasidan kelib chiqib, o'sha vaqtda davlatning hukmron siyosati va islom ta'limotiga xizmat qilgan. XX asr boshlarida Buxoro madrasalari Markaziy Osiyo, Kavkazorti, hozirgi Tatariston va Boshqirdiston hududlari uchun islomiy ta'lim markazlaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etgan.

### **Muhokama va natijalar**

**Madrasa** — oliy o'quv dargohi. Diniy ilmlar qatorida matematika, notiqlik san'ati va mantiq, tilshunoslik, huquqshunoslik, falsafa, kalligrafiya, musiqa, tibbiyot, geografiya, astronomiya va boshqa ilmlar bo'yicha ta'lim beriladigan o'quv binosi. Arab tilidan olingan, dars o'tiladigan joy. Bu atama ta'lim berish uchun maxsus qurilgan o'quv binolarini ifodalaydi.

VII—VIII asrlarda islom dini ulamolari musulmon ilohiyoti masalalarini sharhlab berib turadigan markaz sifatida arab davlatlarida paydo bo'lgan. IX—XII asrlarda islom diniga e'tiqod qilinadigan mamlakatlarda, jumladan, Markaziy Osiyoda tarqaldi. Madrasalarda milliy ziyolilar tayyorlangan. Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida aytib

o‘tilgan 937-yilgi yong‘inda zarar ko‘rgan Forjak madrasasi Markaziy Osiyodagi dastlabki madrasalardandir. Madrasalarning xon madrasalari, eshon madrasalari, xususi madrasalar kabi turlari bo‘lgan. Madrasa muassislari madrasani ta‘minlash uchun maxsus mulk — vaqf ajratishgan va bu mulkni boshqaruvchi mutavvalini tayinlashgan. Madrasalarning vaqf daromadlaridan bir qismi vaqf mulkini saklab turish, madrasa binosini ta‘mirlash uchun ajratilgan, ma‘lum qismi mutavvali, mudarrislar, talabalar, masjid imomi, muazzini, sartaroshi, farroshi va boshqa xizmatchilarga berilgan

Madrasaga maktabxonani tugatganlar qabul qilingan. Talabalar yoshi 10 dan 40 yoshgacha bo‘lgan. Ular madrasa yotoqxonalarida yashash huquqiga ega bo‘lgan kunduzgi bo‘lim va darslarga erkin qatnovchi sirtqi bo‘lim talabalari toifalariga ajratilgan. Madrasa o‘quv dasturining umumiy jihatlari X—XII asrlarda ishlab chiqilgan va keyinchalik takomillashib borgan. Mashg‘ulotlar, odatda, sentabrda boshlanib, may oyigacha davom etgan. Yoz oylari va ramazon oyida ta‘tilga chiqilgan. Madrasada hafta kunlari tahsil (shanba, yakshanba, dushanba, seshanba) — mashg‘ulot kunlari va ta‘til (chorshanba, payshanba, juma) — o‘tilganlarni takrorlash hamda dam olish kunlariga bo‘lingan. Darslar quyosh chiqish payti (bomdod nomozidan keyinoq) boshlangan. Madrasada ta‘lim 3 bosqichda: boshlang‘ich (adno), o‘rta (avsat) va yuqori (a‘lo) guruhlarda olib borilgan. Adno bosqichi "Aqid" kitobini o‘qishga o‘tguncha davom etgan, avsat bosqichi "Aqid" kitobini o‘qishdan boshlanib, "Sharhi mulla" kitobini o‘rganguncha bo‘lgan va undan keyingi murakkab qo‘llanmalarni o‘rganuvchilar a‘lo bosqichi talabalari hisoblangan. Madrasada o‘qish talabalar iqtidoriga qarab, 7—12 yil davom etgan. Markaziy Osiyodagi madrasalarda arab va fors tilida yozilgan kitoblar o‘qitilgan, ular talabalarga mudarris tomonidan turkiy tilda sharhlab berilgan. Madrasa o‘quv kursi, odatda, "Avvali ilm" deb nomlangan fors tilidagi o‘quv qo‘llanmasini o‘zlashtirish bilan boshlangan. Keyin o‘rta asrlarning ilmiy tili hisoblangan arab tili grammatikasi (arab tili morfologiyasi — sarfi va sintaksisi — nahvi "Bidon", "Kofiya" kabi darsliklar asosida) o‘qitilgan. Arab tili grammatikasidan so‘ng o‘quv kursi 2 bo‘limga: umumta‘lim kursi — mushkulot va fiqh kursi — masala bo‘limlariga ajratilgan. Madrasalarda fiqh kursining faroiz — meros huquqi qismi bilan birga matematika fani ham majburiy o‘quv kursiga kiritilgan. Talabalar o‘z xohish-istaklari va qobiliyatlariga qarab mushkulot yoki masala bo‘limlaridan birini, agar istasalar har ikki bo‘limni o‘qib tamomlashlari mumkin bo‘lgan. Madrasalarda to‘liq kursni o‘qib tamomlash uchun talabalardan falsafa va huquq fanlariga oid taxminan 137 darslik — qo‘llanmani o‘zlashtirish talab etilgan. Bu darsliklarning aksariyatini markaziy osiyolik allomalarning asarlari, jumladan, Imom Buxoriy va Imom Termiziylarning hadis to‘plamlari, Moturidiyning "Kitob attavhid", Burhoniddin Marg‘inoniyning "al-Hidoya fi sharh al-bidoya", Najmiddin Ali ibn Umar Qazviniyning "ar-risola ash-shamsiya fil qavoid al-mantiqiya", Abdurahmon Jomiyning "al-Favoid ad-diyoiya", Mahmud ibn Ahmad Mahbubiyning "Viqoyat ar-rivoya fi masoil", Ubaydulloh ibn Mas‘ud Mahbubiyning "an-Nuqoya" ("Muxtasar al-viqoya") kabi asarlari tashkil etgan. Madrasalarda talabalarning qiziqishlari va mudarrislarining mavjudligiga qarab, falakiyot, handasa, tibbiyot, kimyo, jug‘rofiya, tarix, adabiyot, aruz ilmi, me‘morlik asoslari, xattotlik, musiqa, axloq, notqlik kabi fanlar ham o‘qitilgan. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Markaziy Osiyo madrasalari

o'quv dasturi birmuncha isloh etilib, ularda o'qitiladigan fanlar tarkibiga turk, rus, fransuz, ingliz tillari, fizika, ziroatchilik, hisob, gigiyena, psixologiya, metodika, trigonometriya, siyosiy iqtisod, tijorat kabi fanlar kirib kela boshlagan. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Buxoro amirligida 336, Xorazmda 132, Turkiston general-gubernatorligida 348 madrasa bo'lgan. XX asrning 2-choragi boshlarida sovet hukumati tomonidan madrasalar diniy muassasalar qatorida davlatdan ajratilgan va "xurofot o'choqlari" tamg'asi bilan tugatib yuborilgan. O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston musulmonlari idorasi ixtiyorida qolgan bir nechta madrasa esa endilikda faqat ruhoniylar tayyorlaydigan o'rta va oliy diniy o'quv yurtlariga aylantirilgan.

Madrasalar musulmon olamida me'morlik inshooti sifatida X—XI asrlarda vujudga kelgan. Ilk madrasalar bir qavatli, o'rtasi hovli va uning atrofi hujralardan iborat bo'lgan. Ba'zan gumbazli go'rxona qurilib, madrasaga homiylik qilgan kishining sag'anasi qo'yilgan. XIV—XVI asrlardan boshlab hashamatli madrasa binolari qurish avj oldi. Ular 2—3 qavatli qurilib, odatda, katta va go'zal peshtoqli, atrofi hujralar bilan o'ralgan hovlisi, darsxona, kutubxona va masjidi bo'lgan. Keyinroq, katta madrasalar yoniga minora qurish rasm bo'lgan. Kirish peshtoqining ro'parasida, peshayvon bo'lib, u yozgi darsxona vazifasini bajargan hamda hovliga salobat bergan. Ba'zan madrasalarda hujralarning hovli tomoni ravoqli ayvonlar bilan o'ralib, hovli o'rtasida hovuz qilingan. Madrasalarning tashqi va ichki qismi har xil rangli koshinkori va ganchkori bezaklar bilan pardoqlangan. Qur'ondan oyatlar va hadislar ko'chirib yozilgan. Masalan, Buxorodagi Ulug'bek madrasasi eshiklariga „*Bilim olmoq har bir musulmon erkak va ayolning burchidir*“ degan hadisi-sharif bitilgan.

Madrasa umumiy qurilish tipologiyasi (tasnifi) loyihasi va qurilmasiga ko'ra, ajralib turadi. Markaziy Osiyo me'morligida masjid va darsxona qoidaga ko'ra, peshtoqning ikki yon qanotida joylashgan. Suriya va Misrda ular kiraverishda hovlining to'rida ko'ndalangiga ayvonli qilib qurilgan. Turkiyada hovli tepasi ham gumbaz bilan qoplangan. Markaziy Osiyo va G'arbiy Osiyoda odatdagidek ravoqli qilib yopish uslubi qo'llangan. Shimoliy Afrikada to'sinli tomlar bo'lgan. Arab mamlakatlarida dastlabki madrasa vazir Nizomulmulk tomonidan Bag'dodda (XI asrning 2-yarmida) qurilgan. Markaziy Osiyoda madrasa maxsus me'morlik inshooti sifatida qurilgani haqida tarixiy ma'lumotlar saqlangan. Ba'zi bir olimlarning fikricha, Shohizinda tarkibida Samarqand hokimi Tamg'och Bug'roxon Ibrohim qurdirgan (XI asr) madrasa qoldiqlari topilgan. Buxorodagi Mir Arab madrasasi, Abdullaxon madrasasi, Abdulazizxon madrasasi, Samarqanddagi Ulug'bek madrasasi, Sherdor Madrasa, Tillakori madrasasi, Xivadagi Muhammad Rahimxon madrasasi, Muhammad Amin inoq madrasasi, Toshkentdagi Ko'kaldosh madrasasi, Baroqxon madrasasi, Abulqosim madrasasi, Qo'qondagi Kamol qozi madrasasi, Andijondagi Gumbaz madrasa va boshqalar me'moriy yodgorliklar sifatida mashhur.

**Yangi usul maktablari** — musulmon maktablarining ta'lim usuli va dasturlarini isloh qilib, bolalarga ona tilida xatsavod o'rgatgan va yangilik g'oyalarini ilgari surgan o'quv yurtlari. Dastlab Qrimning Boqchasaroy shahrida 1884-yil ma'rifatparvar Ismoilbek Gasprinskiy tomonidan tashkil etilgan va u "usuli savtiya tadrijiya" ("rivojlanuvchi tovush

usuli") maktabi bo'lgan. 19-asr oxiri — 20-asr boshlarida Turkistonda tijorat va sanoatning rivojlanishi bu sohalarini boshqara oladigan shaxslarni yetishtirish ehtiyojini tug'dirdi. Ko'p asrlik maktabxonalar yoshlarga zarur dunyoviy bilim va ko'nikma bermas edi. Shuning uchun yangi usulda ta'lim beradigan maktablar ochila boshladi. 1893-yil Buxoro amiri Abdulahadxon ruxsati va Mo'minxo'ja Vobkendi va g'ijduvonlik Domla Fozil sa'yharakati bilan dastlabki yangi usul maktabi ochildi. O'zbekiston hududida keyingi Yangi usul maktablarim. 1898-yil Qo'qonda Salohiddin domla va Samarqanddagi paxta zavodi huzurida tatar muallimlari tomonidan ochilgan (o'zbeklar bu davrda bunday maktablarni "no'g'oy maktab" deb atagan). 1900-yildan boshlab Toshkentda jadidchilik harakatining yirik namoyandasi Munavvarqori Abdurashidxonov, Samarqandda Abduqodir Shukuriy (Shakuriy) tashkil qilgan Yangi usul maktablarim. ish boshlagan. Bunday maktablar Andijon va Namanganda, Xiva xonligida ham ochilgan. 1908-yil Buxoroda A. Burhonov tomonidan tashkil etilgan boshqa yangi usul maktabi ko'p o'tmay yopib qo'yilgan. Yangi usul maktablarim.da maktabxonadagi yakka o'qitish usulidan sinfda dars berish usuliga o'tildi, sinflarda geogr. xaritalari, globus va boshqalar ko'rgazmali qo'llanmalar paydo bo'ldi. Yangi usul maktablarim.da xatsavod bolalarning ona tilida tovush usuli — usuli savtiyaaa o'rgatilgan. Maktablar asosan 1— 4sinf dan iborat boshlang'ich maktablar bo'lgan. 1913/14 o'quv yilidan ayrim joylarda 2 bosqichli tizim joriy qilina boshlandi. Bu tizimdagi maktablar namuna maktablari deb atalib, ularning 1bosqichi tahziriy (boshlang'ich) sinflar, 2bosqichi rushdiy (yuqori) sinflar deyilgan. Xususan, M.Abdurashidxonovning namuna maktabi, A. Shukuriyning Samarqanddagi va A. Ibodiyevttt Qo'qondagi maktabida rushdiy (yuqori) sinflar (5— 6sinf) ham ish boshlagan.

Chor hukumati amaldorlari bunday maktablar milliy madaniyatning o'sishiga yordam berishidan cho'chib, podsho hokimiyati uchun xatarli deb hisobladilar. Shuning uchun ularning faoliyatini bo'g'ib qo'yadigan turli tadbirlar qo'rildi. Xususan, 1911-yilda mahalliy millat maktablarida (rustuzem maktablaridit tashqari) o'quvchilar qaysi millatdan bo'lsa, muallimlar ham shu millatdan bo'lishlari lozim degan qaror qabul qilindi. Shu qaror asosida tatar muallimlari ishdan bo'shatilib, bir necha o'nlab Yangi usul maktablarim. yopib qo'yildi. Yangi usul maktablarim.ning biron joyda rasmiy tasdiqlangan yagona o'quv rejasi, dasturi bo'lmagan. Darslar muayyan maktab rahbari va muallimlari tomonidan tuzilgan o'quv rejasi va darsliklar asositsa olib borilgan. Mas, A. Shukuriy o'z maktabining 1 va 2 bosqich sinflari uchun o'quv dasturi va rejasini Behbudiy bilan birgalikda tuzgan. Yangi usul maktablarim.da dunyoviy fanlar bilan bir qatorda diniy darslar ham o'qitilgan. Alifbe kitobi bilan "Alifboyi Qur'oniy" ham o'rgatila boshlangan. Dunyoviy fanlardan fizika, kimyo, geom., arifmetika, geogr., ayrim maktablarda 4sinf dan rus tili ham o'qitilgan. Rus tilidan imtihonlar Toshkentdagi 2 bosqichli rustuzem maktabida o'tkazilgan va o'quvchilar bilimi 5 balli tizim asosida baholangan. Yangi usul maktablarim.da yuqori sinflar uchun fizika, kimyo, geom. kabi o'quv fanlaridan o'zbek tilida darslik, o'quv qo'llanmalari bo'lmagan. Muallimlar bu fanlar bo'yicha tatar, turk tillarida nashr qilingan qo'llanmalardan foydalanishga majbur bo'lganlar. Ayrim muallimlar o'zlari darsliklar yozib, shu asosda ta'lim berganlar. Saidrasul Saidazizov "Us todi avval" (1902), Behbudiy "Risolai asbobi savod" (1904), "Risolai jug'rofiya umroniy" (1905), Munavvarqori "Adibi



avval", "Adibi soniy" (1907), Abdulvohid Burhonov "Rahbari xat" (1908), Avloniy "Birinchi muallim" (1910), "Ikkinchi muallim" (1912), Rustambek Yusufbek o'g'li "Ta'limi avval", A.Ibodiyev "Tahsilul alifbo" darsliklarini yozib nashr etishdi.

Yangi usul maktablarim. da may oyi oxirlarida ota-onalar va mehmonlar ishtirokida imtihonlar o'tkazilgan. Imtihonda bolalar Qur'on suralarini yod aytishni, o'zbek tilidan o'qish va yozishni, hisobdan 4 amalni o'rganganliklarini namoyish qilganlar. Yangi usul maktablarim. zamonaviy o'zbek milliy maktablarining ilk bosqichi bo'lgan. Bu maktablar tajribasi asosida faqat alifbe va o'qish kitoblarigina emas, o'zbek tilining qonunqoidalari yoritilgan "Turkcha qoida" va "Imlo" kabi dastlabki o'quv qo'llanmalari yaratilgan. 1918-yilgacha O'zbekiston hududida 104 Yangi usul maktablarim. bo'lib, ularda 10343 bola o'qigan. Yangi usul maktablarim. 1918/19 o'quv yilidan davlat maktablariga aylantirilib, xalq maktablari nomini olgan.

Jadidchilik Turkistondagiga nisbatan og'ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga keldi. Uning tarkibi asosan Buxorodagi shahar aholisining taraqqiyparvar qismi: ziyolilar, mullavachchalar, mayda do'kondorlar va ma'murlar, hunarmandlar, savdogarlardan iborat edi. Jadidlarning dehqonlar va askarlar o'rtasida nufuzi avvaliga past bo'lgan. Jadidlar iqtisod va boshqaruv sohasida bir qator talablar, chunonchi, soliqlarni kamaytirish talabi bilan chiqishdi. Ular dastlab Buxorodagi amirlik tuzumi doirasida islohotlar joriy qilmoqchi bo'lishdi. Buxoroda vobkentlik dehqon Jo'raboy ilk yangi usul maktabini ochgan edi.

Buxorodagi jadidchilik harakatiga ayrim johil mullalar, har qanday yangilik va islohotlarning dushmani bo'lgan qadimiylar o'qimi qarshi chiqdi. 20-asr boshlarida Buxoro jamiyati 2 guruhga: Ikrom domla rahbarligidagi taraqqiyparvarlar va Mulla Abdurazzoq boshchiligidagi qadimiylarga bo'lingan edi.

1908-yil „Buxoroi sharif shirkati“ tuzilib, darsliklar nashr etish va kitob savdosi bilan shug'ullandi. Ahmadjon Hamdiy (Abusaidov), Usmonxo'ja Po'latxo'jayev (Usmon Xo'ja), Homidxo'ja Mehriy, Abdulvohid Burhonov, Abdulqodir Muhiddinov, Sadridin Ayniy, Abdurahmon Sa'diy shirkatning tashkilotchilari edi. 1909-yil dekabrda jadidlar Buxoroda „Tarbiyai atfol“ („Bolalar tarbiyasi“) maxfiy jamiyatini tuzishdi (asoschilari: Abdulvohid Burhonov, Homidxo'ja Mehriy, Ahmadjon Hamdiy, Mukammil Burhonov, Hoji Rafe). Bu jamiyat turkistonlik va buxorolik yoshlarni Istanbuldagi „Buxoro ta'mimi maorif jamiyati“ bo'limiga o'qishga jo'natdi. Xorijdagi ta'lim yoshlar dunyoqarashida tubdan burilish yasadi. Jadidchilik Buxoro va Turkistonda bir vaqtda boshlangan bo'lsa ham, amirlikdagi og'ir muhit uning taraqqiyotini tezlashtirdi. 1910-yildan boshlab Buxoroda jadidchilik harakati tashkiliy tus oldi va „Tarbiyai atfol“ maxfiy jamiyati asosida partiya tashkil topdi.

Ammo baho bilimni belgilovchi aniq mezon emas. U o'quvchilarni faollikka undovchi,rag'batlantiruvchi vosita, xolos. Har bir o'qituvchining o'z ish uslubi, baholash metodi bor. Qaysidiro'qituvchi uchun baho bu – rag'bat yoki o'quvchini 45 daqiqa ushlab turish vositasi. Shundanmi, birsinfdan ikkinchi sinfga o'tgan bolaning bahosida keskin o'zgarish yaqqol namoyon bo'ladi. Yana, pedagoglar orasida bahoni nisbatan yuqoriroq qo'yuvchi yoki o'quvchining bilim darajasi talabga javob bersa-da, “5” ni tejaydiganlari bor. Bu usullarning qaysi biri to'g'riligi esa doimiy bahs talab mavzu. Zero, Abdibek

Sheroziy aytganlaridek: “Inson ilm nuri bilan o‘z yo‘lini yoritmasa, zulmat va nodonlik ko‘chasida qoladi. Kishi qalbining nuri ilm va ma‘rifat bilan baquvvat bo‘ladi. Insoniyatning qadri ilm bilan hosil bo‘ladi. Ilmdan hali hech kim zarar ko‘rgan emas. Ilmni egallab olish va unio‘rgatish esa bir san’atdir”. Bugungi Buxoro davlat universitetining Pedagogika institutida “Pedagogik ta‘lim: Xalqaro tajriba va innovatsion yondashuvlar” mavzusidagi an‘anaviy-amaliy anjuman ham keng mazmun va yuqori saviyada tashkil etilib, bevosita bugungi kundagi Oliy ta‘lim va xalq ta‘limi tizimidagi qator muammolarni aniqlash hamda ularning innovatsion yechimlarni topish, qolaversa, ijobiy yakunlarni ommalashtirishga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini hamda xalq ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash” to‘g‘risidagi 5712- va 5847-sonli farmonlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026- yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28- yanvardagi 60-sonli Farmoni bugungi o‘tkazilayotgan konferensiyaning metodologik asosi bo‘lib xizmat qiladi, - desak mubolog‘a bo‘lmaydi.

### **Xulosa**

Buxoro madrasa maktabi xalqni ma‘rifatli qilishga, yoshlarni davrining ilg‘or ruhida tarbiyalashga qaratilgan maskan hisoblanadi. Ta‘limiy-axloqiy, diniy, ma‘naviy-ma‘rifiy, o‘zbek pedagogikasi taraqqiyotida sezilarli iz qoldirdi. Buxoro mir arab madrasasi, jadidchilik maktablari ta‘lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o‘zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘langan. Uning boy pedagogik merosi milliy maktab, milliy pedagogikani rivojlantirishda qimmatbaho manba bo‘lib xizmat qiladi. Maktabda olingan bilim insonning kelgusi hayot yo‘lini belgilaydi. Ko‘pchilik uni baho bilan o‘lchaydi. Ammo baho bilimni belgilovchi aniq mezon emas. U o‘quvchilarni faollikka undovchi, rag‘batlantiruvchi vosita, xolos. Shu ma‘noda, Buxoro mir arab madrasasi ilmiy va pedagogik faoliyati o‘zbek xalqi uchun balki, butun islomiy mamlakatlar uchun qadrlidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Abu bakr muhammad narshaxiy, buxoro tarixi, t., 1991;
2. Ayniy s, buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar, m., 1926; xo‘jayev f., buxoro inqilobining tarixiga materiallar, t., 1997;
3. Ayniy s., buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar, moskva, 1926;
4. 2022-2026- yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi